

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-1  
BUXORO AMIRLIGIDA HARBIY ISH TARIXI.**

Osiyo xalqaro universiteti  
“Tarix va filologiya” kafedrası  
o‘qituvchisi **Haqqulov**  
**Mehridin Yunusovich**  
[mexriddinhaqqulov@gmail.com](mailto:mexriddinhaqqulov@gmail.com)

Osiyo xalqaro universiteti  
“Ijtimoiy fanlar va texnika”  
fakulteti Tarix ta’lim yo‘nalishi  
1-T-24 guruh talabasi **Qosimov**  
**Umidjon Ismatillo O'g'li o'g'li**  
[K4558024@gmail.com](mailto:K4558024@gmail.com)

**Annotatsiya:** Buxoro amirligida oliy hukmdor amir hisoblanib, uning hokimiyati avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tgan. Buxoro Amirligi hukmdorlari muntazam qo‘shinning bo‘lmasligi davlat xavfsizligi uchun fojiali oqibatlarga olib kelishini ashtarxoniyalar qismatidan yaxshi bilib olgan edilar. XVIII asrning ikkinchi yarmida ham qo‘shin hamon nomuntazam (qora cherik) qo‘shini bo‘lib, u ichki va tashqi xavfni bartaraf etishga qodir emas edi.

**Kalit so‘zlar:** Muntazam qo‘shin, nomuntazam qo‘shin, to‘pchiboshi, Buxoro, Xiva, Qo‘qon, Rossiya, Kaufman, Amir Haydar, Amir Nasrullo, Amir Muzaffar, Abdusamad Tabriziy, Yevropacha usul, Eron, O‘g‘lon va Talipoch darvozalari, O‘rta Osiyo, Jizzax, O‘ratepa, Erjar

**Abstract:** In the Bukhara Emirate, the supreme ruler was considered the emir, and his power was inherited from generation to generation. The rulers of the Bukhara Emirate knew well from the fate of the Ashtar Khans that the absence of a regular army would have tragic consequences for the security of the state. Even in the second half of the 18th century, the army was still an irregular (black army) army, which was unable to eliminate internal and external threats.

**Keywords:** Regular army, irregular army, artillery chief, Bukhara, Khiva, Kokand, Russia, Kaufman, Amir Heydar, Amir Nasrullah, Amir Muzaffar, Abdusamad Tabrizi, European style, Iran, Oglon and Talipoch gates, Central Asia, Jizzakh, Oratepa, Erjar

**Аннотация:** В Бухарском эмирате верховным правителем считался эмир, власть которого передавалась по наследству из поколения в поколение. Правители Бухарского эмирата хорошо усвоили на примере судьбы Аштарханов, что отсутствие регулярной армии будет иметь трагические последствия для безопасности государства. Даже во второй половине XVIII века армия все

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-1**

еще оставалась нерегулярной (черной) и не могла устранить внутренние и внешние угрозы.

**Ключевые слова:** Регулярная армия, нерегулярная армия, начальник артиллерии, Бухара, Хива, Коканд, Россия, Кауфман, Амир Гейдар, Амир Насрулла, Амир Музаффар, Абдусамад Тебризи, европейский стиль, Иран, ворота Оглон и Талипоч, Средняя Азия, Джизак, О' ратепа, Эрджар

Buxoro amirlari XIX asr boshlaridan boshlab muntazam qo'shin tuzishga kirishdilar. Mang'itlardan bo'lgan Buxoro amiri Haydar Ibn Shohmurod (1800-1826) davrida boshlandi. Uning hukmronlik yillarida mamlakatda notinchlik hukm suradi, ya'ni markaz va viloyatlar hamda kechagina viloyat maqomida bo'lgan, lekin endilikda alohida siyosiy birlik - xonlikka aylangan Xiva va Qo'qon bilan qarama-qarshiliklar avjiga chiqadi va mamlakatda har 3-6 oyda uzluksiz ichki urushlar va qo'zg'olonlar bo'lib turgan. Amir Haydar tuzgan muntazam qo'shin o'sha davrda navkariya (muntazam) va qoracherik (nomuntazam) bo'lgan. Amir Xaydar jarchilari harbiy harakatlar haqidagi xabarni bozorlarda e'lon qilgan. Bozorlarda "qoracherik"ga olinuvchilar ro'yhati osib qo'yila boshlagan. Harbiy harakatlar davomida va amirlik chegaralaridagi harbiy qal'alarni himoyalashda "qoracherik"dan unumli foydalanilgan. Mamlakat chegarasini, qal'alarni qo'riqlashga safarbar etilgan "qoracherik" a'zolari ma'lum vaqt shu yerda ushlab turilgan. Mamlakatda tinchlik hukm surgan davrlarda qoracherik o'z uylariga qaytarib yuborilgan. Amirlikda qurol-yarog' ishlab chiqaruvchi ustaxonalar ham bo'lgan. To'plar Samarqand shahridagi ustaxonalarda qo'yilgan bo'lsa, porox esa Qarshi shahrida tayyorlangan. Uni ishlab chiqaruvchi hunarmand ustalar dorukash deb atalgan. Harbiy harakatlar chog'ida qo'shinni joylashtirish masalasi sarboz va to'pchilarning har bir o'nlik bo'linmasiga bittadan chodir ajratish orqali hal etilgan. Qurol-yarog' o'q-dori va jang uchun barcha zarur narsalar manzilga ot-aravalarda yetkazilgan. Amir Nasrullo muntazam qo'shinning ehtiyojlarini, dastlab, kundalik iste'mol mahsulotlari berish orqali qondirgan. Keyinchalik muntazam qo'shin askarlari uchun maosh to'lanadigan bo'ldi. Sarboz va to'pchilari uchun har uch oyda bir tilla maosh belgilandi. Tabiiyki, yuqori mansabli sarkardalarning maoshlari miqdori balandroq bo'lgan. Masalan, yuzboshi oyiga olti tilla, qorovulbegi to'rt yarim tilla, panjaboshi (ellikboshi) sakson besh tanga, bosh sarkarda esa ikki ming tilla maosh olgan. Bulardan tashqari, harbiy harakatlar chog'ida mansab va unvonidan qat'i nazar har bir qatnashchiga kuniga bir tilla berilgan. Bundan ham tashqari, oddiy askar har uch kun uchun bir tanga, o'nboshi har ikki kun uchun bir tanga, qorovulbegi kuniga ikki tanga va yuzboshi esa to'rt tanga qo'shimcha haq olardi. Ayni paytda, muntazam qo'shin askarlari xizmat davomida turli soliq va majburiyatlardan ozod etilgan. Jangda halok bo'lgan askarlar, shuningdek, xizmat qilayotgan askarning vafot etgan oila

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-1

a'zolarini dafn etishda ma'lum miqdorda pul va kafanlik berilgan. Muntazam qo'shin tuzish bilan bog'liq muammolar Amir Nasrullo davrida to'la yechimini topdi. 1837- yil amir Nasrullo harbiy islohot o'tkazib muntazam qo'shin tuzgan. Islohotga ko'ra sarboz (piyoda askar), navkar (otliq qo'shin) va to'pchi askarlardan iborat 3 turdagi muntazam qo'shin tuziladi. Bu islohotlargacha amirlik ixtiyorida yani 1830-1832-yillarda poytaxt Buxoroda 20 ming kishilik otliq qo'shin, 400 kishilik piyoda qo'shin bo'lib ularning ixtiyorida 41 ta artileriya to'pi mavjud bo'lgan biroq bu hammasi emas edi davlatning boshqa hududlarida 50 ming kishilik otliq qo'shin (bulardan 10-ming kishi Balxda va amudaryodan janubidagi hududlarda) mavjud edi ba'zi manbaalarda keltirilishicha bu qo'shin eljari yani (hozirgi militsiya) shaklidagi qo'shin turi bo'lib, davlat ichidagi ichki ishlarida xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qilgan. 1837-yili Amir Nasrullo o'tkazgan harbiy islohotlar natijasida Buxoro amirligi qo'shinining jangovar holati yaxshilangan. Har biri 800 kishidan iborat 50 ta sarbozlar bo'limlari va 250 kishilik to'pchilar guruhi tashkil qilingan. Xorijdan harbiy mutaxassislar jalb qilinib, ulardan zamonaviy qurol-yarog'lar tayyorlash va foydalanish sirlari o'rganilgan. 1834-yilda Erondan kelgan Abdusamad Tabriziy Yevropacha usuldagi nizomiy askarlarga tartib bergan va 1837-yilda maxsus to'pchilar qo'shinini tuzgan. Buxoroda to'p va zambaraklar quyish uchun maxsus to'pxona qurilgan. 200 kishidan iborat ingliz rusumidagi maxsus askariy guruh tuzilib, unga eroniy qullar kiritilgan. Ushbu guruh Amir Nasrullohning o'ziga xos maxsus gvardiya otryadi bo'lib, unga Abdusamad Tabriziy boshchilik qilgan. Shuningdek, xorijdan yana Shohruhxon va Ibrohimxon to'pchiboshi va boshqa harbiy mutaxassislar olib kelingan. Buxoro amirligining harbiy qo'shinida qizil kurtka, oq shalvar va qalpoqdan iborat maxsus harbiy kiyim joriy etilgan. Muntazam piyoda qo'shinining soni 40 ming (yoki 2,5 ming) sarbozdan iborat bo'lgan. Keyinchalik sarbozlarning har biri nayzali miltiq, qilich va to'pponcha bilan qurollantirilgan. Amir sarbozlariga eron, turk zobitlaridan tashqari ayrim rus ofitserlari ham ta'lim berishgan. Amir Nasrulloh 1837-yil Markaziy Osiyoda o'qotar qurol bilan qurollangan va kazarmalarda joylashgan ilk muntazam qo'shinni — Sarbozlar batalionini tuzgan. Nasrulloh davrida qo'shin tuzilishi quyidagi ko'rinishda bo'lgan: Harbiy asirlardan iborat 80 kishilik guruh, 700 kishilik harbiy bo'linma, ular 7 dastaga bo'linib boshida ellik boshi, bu guruh ham o'nliklarga bo'linib, dahboshi boshqargan va yuzboshiga yordamchi harbiy mansabdor hisoblangan. Nasrullohdan oldin ham amirlikda to'plar mavjud bo'lgan. Nasrulloh esa ularni alohida guruh qilib, Buxoroning O'g'lon va Talipoch darvozalari oldida to'pchi kazarmalarini barpo etadi. O'sha paytda bu hududlar „Sarbozxona“ nomi bilan mashhur bo'lgan. Sarbozxonada harbiylarning 800 uydan iborat muntazam yashash manzili joylashgan edi. Amir Nasrulloh tashkil etgan to'pchilar tarkibida 14 nog'arachi, 14 naychilardan iborat musiqachilar guruhi mavjud

# FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VOLUME-2, ISSUE-1

bo'lib, har bir yuzlikda ikkita turk na'munasidagi barabanchi, 4 ta surnaychi, 6 ta trubachi faoliyat ko'rsatgan. Bundan tashqari, rus harbiy asirlaridan tatar Ismoil va rus Trofim murabbiyligida piyoda sarbozlardan tashkil etilgan harbiy musiqachilar guruhi bolobomchilar ham bo'lgan. Ayniqsa, Amir Nasrullohning harbiy sohadagi islohotlarining natijasi keyinchalik Rossiya imperiyasining tajovuzi va hujumiga qarshi kurashda Buxoro amirligining uchta o'zbek davlati o'rtasida nisbatan eng keskin va qattiq qarshilik ko'rsatishiga olib kelgan. Rossiya imperiyasi bosqiniga qarshi kurashda Buxoro amirligi mag'lubiyatga uchragan bo'lsa ham, mamlakat hududlarining muayyan qismi saqlab qolingan. Yuqorida aytib o'tilgan amirlardan keyin hukmronlik qilgan amirlar davrida harbiy islohot o'tkazilishi to'xtatiladi. Buning asosiy sababi esa Rossiya imperiyasi bilan to'xtovsiz urushlar edi. Amir Haydar va amir Nasrulloxondan keyingi amirlar davrida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklarga qarshi harbiy harakatlari kuchayadi. Amir Muzaffar (1860-1885) bilan Rossiya imperiyasi generali Romanovskiy boshchiligida dastlabki to'qnashuv Jizzax bilan O'ratepa o'rtasidagi Erjar (mayda yulg'un)da bo'lib o'tadi. Unda Buxoro qo'shini mag'lubiyatga uchraydi (1866) keyingi to'qnashuv esa (1868) may oyida Cho'ponota tepaligidagi general adyutant Konstantin Petrovich fon Kaufman boshchiligidagi Rossiya imperiyasi qo'shinlariga yengiladi. 2-3-iyunda uchinchi bor mag'lubiyatga uchragan Buxoro amirligi 1868-yil 23-iyunda Samarqanda imzolangan Rossiya-Buxoro sulh shartnomasiga ko'ra Buxoro amirligi Rossiyaga tobe bo'lib qoladi.

## Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Buxoro amirligi davrida harbiy islohotlarga bo'lgan talab va ehtiyojlar amirlarning shaxsiy dunyoqarashlariga qarab olib borilgan. Amir Nasrulloxon olib borgan islohotlar ma'lum muddat amirlik harbiy salohiyatini oshirib berdi. Amirlikda boshqa sohalarga qaraganda harbiy sohada olib borilgan islohotlar ancha samarali kechdi. Chunki amirlar yangi hududlarni zabt etish, o'z boshqaruvi ostidagi shaharlar va qal'alar tinchligini ta'minlash, isyonlar bostirishda ancha qiynalayotgan edi. Bu islohot amirlik qudratini oshiribgina qolmay, qo'shinning jangovar ruhiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
2. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-1**

3. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
4. Haqqulov, M. (2024). O 'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO 'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI". *Modern Science and Research*, 3(12), 609-613.
5. Gulyamov, A., Srojjeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO OCHILGAN MUZEYLARNING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 248-256.
6. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(11), 154-159.
7. Gulyamov, A., Srojjeva, G., & Haqqulov, M. (2025). O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI. *Modern Science and Research*, 4(1), 221-227.
8. Yunus ogli, H. M. (2023). QADIMGI MESOPOTAMIYA SHAHAR-DAVLATLARI O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABATLAR.
9. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOYIY-IQTISODIY, MA'NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.
10. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
11. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
12. Ilniyazovich, S. F. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TARIX FANINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI.
13. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.
14. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 149-155.
15. Sayfutdinov, F. (2024). BUXORO AMIRLIGINING QURILISH TARIXI: MADANIY VA ARXITEKTURA TARAQQIYOTI MEROSI. *Modern Science and Research*, 3(12), 852-858.
16. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-1**

MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 1–5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>

17. Sayfutdinov , F. . (2024). ILLUMINATION OF THE SPIRITUAL LIFE OF THE KARAKALPAK PEOPLE IN RESEARCH. *Journal of Universal Science Research*, 2(5), 441–452. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/34891>

18. Sayfutdinov , F. (2024). MANG'IT AMIRLARI DAVRIDA BUXORO AMIRLIGI ME'MORCHILIK SOHASI RIVOJI. *Modern Science and Research*, 3(10), 620–629. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/45335>

19. Ilniyazovich, S. F. (2024). Historiography of Various Expeditions and their Results in the Regions Inhabited by Karakalpaks in the First Half of the 20th Century. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 159-165.

20. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(8), 111–114. Retrieved from <http://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/284>

21. Sayfutdinov, F. (2023). ILLUMINATION OF KARAKALPAK PEOPLE IN ETHNOGRAPHIC STUDIES. *Modern Science and Research*, 2(12), 910–917. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27281>

22. Sayfutdinov, F. (2024). HISTORIOGRAPHY OF INFORMATION ABOUT THE POPULATION OF THE ZARAFSHAN OASIS. (20TH CENTURY). *Modern Science and Research*, 3(2), 911–914. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29503>

23. Sayfutdinov , F. (2024). ETHNIC COMPOSITION OF THE ZARAFSHAN OASIS (2ND HALF OF THE 20TH CENTURY). *Modern Science and Research*, 3(1), 577–581. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28335>

24. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich, . (2023). LAND OWNERSHIP RELATIONS BASED ON THE NATIONAL ECONOMY OF KARAKALPAK. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 20–27. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue11-04>

25. Sayfutdinov Feruz Ilniyozovich, . (2023). STUDY OF THE KARAKALPAK PEOPLE IN ETHNOLOGICAL SCIENTIFIC WORKS HISTORY . *International*

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH  
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI  
VOLUME-2, ISSUE-1**

*Journal Of History And Political Sciences*, 3(12), 61–68.  
<https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue12-11>

26. Sayfutdinov, F. (2023). ANALYSIS OF DATA ON LAND OWNERSHIP AND LIVESTOCK FARMING OF KARAKALPAKS. *Modern Science and Research*, 2(10), 650–657. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25727>

27. Sayfutdinov Feruz Ilniyazovich, . (2023). USING GIS SOFTWARE AND THE IMPORTANCE OF DIGITAL HISTORY IN THE STUDY OF HISTORY . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 31–33. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-06>

28. Sayfutdinov, F. (2023). THE IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGY IN TEACHING HISTORY. *Modern Science and Research*, 2(10), 719–723. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24678>

29. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O 'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2 (8), 111–114.

30. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.

31. Rahmonova , S., Xayrullayev , U., & Sayfutdinov, F. . (2025). “ОММАВИЙ МАДАНИЯТ”НИНГ МОЎИЯТИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗИ, ХАРАКТЕРИ ВА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. *Modern Science and Research*, 4(1), 479–488. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/61669>

32. Xayrullayev , U., Sayfutdinov , F., & Rahmonova , S. (2025). SHAYBONIYLAR DAVLATI VA USMONLI TURKLAR DAVLATI O'RTASIDAGI DASTLABKI ALOQALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 4(1), 147–154. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60142>